MUQIMIYNING IJTIMOIY MUHITGA QARASHLARI

Xayrullayeva Zebiniso Abdug‘ani qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Soliq va byudet hisobi” fakulteti
3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar**: J. Mauzerov**
https://doi.org/10.5281/zenodo.20116012

Annanatsiya: Millat yashayotgan Ijtimoiy muhitda xalqning o`zgalarga to`be ekanligini, huquqlarini o`zlari bilmasligi qanchalik o`zga millatga foyda berganini va haddan ziyod o`zlariga zarar ekani va bunday hayot kechirish kelgusi avlodga salbiy sa`rir etishini adibimiz Muqimiy o`z faoliyatida xalq uchun ijodini haqiqatga bag`ishlagan - she`rlar, hajviy-g`azallar bilan shu el ahlining o`z qadrini bilishi haqidagi ma`lumotlarni yetkazish maqsadida o`z farovon hayotidan kechib, haqiqat ila yashab o`tgan.
**Kalit so`zlar:** Jamiyatning, rivojlanishi, ong, dunyoqarash, xohish-istaklari, sog`lom-fikrlash, qabihliklar, alg‘ov-dalg‘ovlar, ag‘dar-to‘ntar, ma'rifatparvarlar.

Abstract. In the social environment in which the nation lives, the people are subordinate to others, how much their ignorance of their rights benefits other nations and harms themselves more, and how living such a life negatively affects future generations. Our writer Mukimiy devoted his creativity to the truth for the people in his work - he lived his prosperous life in order to convey information about the people's self-esteem through poems, satirical ghazals.
Keywords: Society, development, consciousness, worldview, desires, healthy thinking.

Аннотация. В социальной среде, в которой живет нация, люди подчинены другим, насколько их незнание своих прав приносит пользу другим нациям и вредит им самим, и как такая жизнь негативно влияет на будущие поколения. Наш писатель Мукимий посвятил свое творчество истине для народа в своем творчестве — он прожил свою благополучную жизнь, чтобы передать информацию о самоуважении народа посредством стихов и сатирических газелей.
Ключевые слова: Общество, развитие, сознание, мировоззрение, желания, здоровое мышление.

Kirish. Barchamizga ma'lumki, XIX asr oxiri va XX asr boshlari chor Rossiya(SSSR) hukumatining O'rta Osiyo mamlakatlariga, jumladan ona yurtimiz O'zbekistonga ko'rsatgan zulmlari, qabihliklari va albatta adolatsizliklari avj olgan davr bo'lgan. Mana shunday og'ir kunda yurtimizdagi biron-bir siyosatchi yoxud hukumat a'zosi bunday adolatsizliklarga qarshi chiqa olmagan va qarshi chiqa olmas edi ham. Faqat o‘zbek xalqi hayotida emas, balki butun dunyo hayotida alg‘ov-dalg‘ovlarga boyligi bilan ajralib turadigan davr bo‘ldi. Shu vaqtda, hayot jarayonlari tezligi haddan ziyod ortdi. Ijtimoiy hodisalarning almashinish surati aqlga sig‘mas darajada tezlashdi. Turkiston xalqlarining necha asrlar mobaynida davom etib kelayotgan bir maromdagi mudroq hayoti shu asr boshida ag‘dar-to‘ntar bo‘lib ketdi. Fikrdagi yangilanish, texnika yutuqlarining kirib kelishi, axborot almashishning tezlashgani turkistonliklarning hayot tarzlarini o‘zgartirib yubordi. Shu vaqtga qadar milliy adabiyotimiz milliy hayotimiz bilan yelkama-yelka bormas edi. Garchi, adabiyotimiz hayotdan tamomila ajralib qolmagan bo‘lsada,

ijtimoiy turmushning muammolari uni to‘la chulg‘ab olmasdi. XX asrga kelib, adabiyot hayotga yaqinlashdi. Nima uchun deganda, o'z nomi bilan adolatsiz chor hukumati, bu narsalarga kifoyalanib qolmay, hayotni o‘zgartirishga urina boshlaganlarga qiyin edi, chunki bunga aslo yo'l qo'ymas edilar. Agarda biror-bir inson bu hukumatga qarshi bosh ko'targanini hukumat sezib qolsa, bu insonning yashash umri eng uzog'i bilan uch kun bo'lgan. Mana shunday qiyin damlarda yurtimiz ma'rifatparvarlari, shoir-yozuvchilari adolatsiz chor Rossiya hukumatini yurtimizga ko'rsatgan zulmlarini o'z asarlarida yaqqol tasvirlab, oddiy aholiga shu narsani singdirishga harakat qilishgan. Mana shunday ma'rifatparvarlar qatorida Muhammad Aminxo'ja Muqimiyni misol qilib olsak bo'ladi, albatta.

Muqimiy asarlarini o'rganish asosida shu davrda mamlakatdagi iqtisodiy holatni kuzatish va tahlil qilish mumkin va shu jumladan iqtisodiy holatni keltirib chiqargan yomon ijtimoiy holat sabab bo`lganini bilish mumkin. Asarlarini o'rganish asosida xatto bugungi kunda ham amaliyotga qo`llash mumkin bo’lgan iqtisodiy-ijtimoiy jihatlarni ko‘rish mumkin. Bundan tashqari Muqimiy asarlarida rahbarlarni shaxsiyati va ulardan xalq talab qilayotgan muhim omillarni keltirib o'tgan. Bu davr og‘ir davr bo`lishiga qaramasdan, Muqimiy o‘z asarlarida qo'rqmasdan boshqaruv tizimi va mamlakatda soliq tizimini juda kuchli tanqid qila olgan. O’sha davr insonlari esa mamlakatda so‘z erkinligi to'liq ta’minlanmaganligi va fuqorolar jamiyatdagi voqealarga o‘z fikrlarini erkin ifodalab bildirishlari mumkin bo`lmagan. Bundan tashqari asarlardan shu davrda mamlakatning geografik holati va hududlarni ijtimoiy holatini o'rganish mumkin. Aholi turmush darajasi ham asarlarda keltirilib o'tilgan. Adibning mashhur hajviylaridan bo`lgan “Moskovchi Boy Ta’rifida”, “Saylov” va “Veksil” asarlaridan hisoblanadi.

“*Moskovchi Boy Ta’rifida*”: Hikoya qilib turib hajviya bilan, haqiqatni xalqqa yetkazmoqchi bo`lishi va ajoyib misralar bilan ifoda etishi uning o`z xalqiga bo`lgan mehru-muhabbatini hajviyalarida zamondoshlari tushinib, sevib tinglab o`qishiga va o`z huquqlarini anglashiga umid qilib yo`zgan.Bu misralarda shunday deyiladi:

Bu ham qirq ming so`m emish, dedi qarz, O`tub va`dasi bersalar vaqti farz.
Netarmiz, debon qistamas el pulin, — Berurmen, — desa, — so`miga o`n tiyin.

Yani o`zgalar molini yoki davlatini o`zlariniki qilishlariga, odamlar ularga nisbatan hech nima demasliklariga, demoqchi bo`lsalar ham imkon yoqligiga va oxir oqibat xalq nochor bo`lishiga olib kelganini bayon qiladi. Bunaqa holatlarga hech lom lim deya olmas edi, shuning uchun adibimiz, haqiqatni aytishni hajviy va she`riy yo’llarda ifodalab, xalqqa qiziq etib yoritib bergan. Quruq vada ostida qolganlar ham, ahmoqona aytilgan so`zlarga ishonib o`zlarini pullarini bilib bilmay berib hech narsa siz qolib ketishgan beva bechoralar, yetimlar haqqi va osha zamon nafsi buzuq kimsalar aldovi bilan ja`bir chekkan kishilar. Ularga shunday so`zlar aytilgan:

Chunonchi xo`jam, Poshshoxo`jani, Maskov yuborgan bilan mol qani(?
Fabrikantlar va`daga molini, Berishmay, —dedi, yig`lab ahvolini.

Asarda kambag'al chorakor dehqon mehnatidan o'z manfaatlari uchun foydalangan, ularni aldab katta zarar yetkazgan hiylakor mahalliy amaldorlar qiyofasi shoir tomonidan o‘tkir,

ta'sirchan misralarda fosh etiladi. Uning bu satirik hikoyasi amaldorlar zulmiga yo'liqqan dehqon arz-dodi bilan boshlanadi.

Dedi oh urib: "Bo`lsa er holi bu" Fig`onindin el ich tushdi g`ulu.

— "Darig`oki, baxtim qaro bo`lmasa, Senga tushmas erdim, hudo urmasa".

Shu davrdagi aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tasvirlab boshlanilgan. Yuqoridagi misralardan oddiy aholiga zulm qilinayotganligi tasvirlanilgan. *"Saylov"*: Bu asar esa adibimiz Muqimiy tamonidan elning yuqori qatlami yani Amaldorlar yoki Mansabli kishilar, o`zlari hohlagan ishlarini, kim ni hohlasa shu insonni turli lavozimlarga tayyorlagan, yoki aksincha kimni xoxlasa o`z lavozimidan olib qoygan. Kimnidir tepaga, kimnidir pastga – bilgan ishlarini qilishgan, boshqa insonlar fikri yoki iltimoslarini inobatga hech ham olishmagan, afsuski nimani o`zlari hohlasa shuni bajarishgan.

Qachon kim bo`ldi hokim amri birlan ibtido sayloy, Amaldor axli boshiga bo`lib keldi balo saylov.

Teraklar bargidek titrab, jamii kozi —mingboshi Degoylarkim: "Yuzni teskari kil, ey hudo, sayloy

Bu toifadagi amaldor xalqdan o'z manfaatlari yo`lida foydalangan hamda bu maqsadlariga erishish uchun bir-biri bilan aka-uka dek bo`lib yaxshi munosabatda bo`lgan. Bundan tashqari bu makkor amaldorlar juda ezma va maqtanchoq shaxs sifatida ko'rsatilgan. Bunday rahbarlar ega va ular qo'l ostidagi xalq juda qiyinchiliklarga uchraydi, deya hajviy usul ila xalqqa aytgan.

Muqimiy, og`ridi boshlar haloyik guftu-tuyidin, Shahar tinchib qolurdi bo`lsa-chi emdi ado saylov.

Bu hajviy satr oxirida mavjud poraxor tuzumdagi ijtimoiy adolatsizlikni, chor ma'murlari va mahalliy amaldorlaming o'zboshimchaliklari va zo'ravonliklari, mustamlaka sharoitida soliq solish va undirib olish kabi hayotiy lavhalarda tarixan haqqoniy tasvirlangan. Saylov deya Adib, shu bad-baxt amaldoru va Mansabli kishilarni o`z o`rinlarini qayda ekanini ifoda etgan.

"*Veksil*" : Bu hajviy misralarda muqimiy o`zining ham kasbi va bir vaqtda yashab o`tgan *Zavqiyning (*Zavqiy ijodiy merosida o‘zbek qishloqlarining ahvoli, dehqonlar hayoti mavzusi ham katta o‘rin tutadi („Yangi Qo‘rg‘on qishlog‘i“, „Suv janjali“, „Shohimardon sayohati“). Bu asarlar Muqimiyning „Sayohatnoma“si ta'sirida yozilgan. Zavqiy Muqimiyning hajvchilik yo‘lini davom ettirib, o‘zbek adabiyotida hajviy yo‘nalish taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi („Obid mingboshi haqida hajv“ va boshqalar). Zavqiyning „Voqeai qozi saylov“ (1909–1910), „Qahatchilik“ (1916) kabi asarlarida ijtimoiy adolatsizlik fosh etiladi, xalqning zulmga qarshi namoyishlari aks ettiriladi. „Ajab ermas“ radifli muhammasi 20-asr boshlari o‘zbek she'riyatida muhim hodisa bo‘ldi. Bunda shoir mustamlaka asoratida ezilayotgan yurtning baxtli kelajagi haqida fikr yuritdi. Ijtimoiy hayotdagi ayrim nosozliklar, kishilar faoliyatidagi salbiy hollar ustidan bir qator she'rlari („Ta'rifi kalish“, „Otim“, „Fonus“, „Sigirim“, „Pashshalar“ va boshqalar)da zaharxanda bilan kuladi.*)* g`azaliga muhammas yozadi va o‘zining xalqqa qilayotgan murojati yani ikkiyuzlamachiliklar va yomonliklar hammasi yaxshilikga teskari, o`z qadrini bilmaslik puch-yolg`onlarga ishonmaslik deb yozadi, va birinchi satrni shunday boshlaydi:

Mastur qolmagaykim: so`zining yug`oni chiqdi, Oltiariqlari ham veksilni koni chiqdi,

Zavodni bitkazolmay Eshonni joni chiqdi, Afsus, ey xaloyik, ishlar yomoni chiqdi, Oxir zamona ma`lum bo`ldi, nishoni chiqdi.

Bu misralardagi (yug`oni, koni, joni, yomoni, nishoni - chiqdi) yani asta sekin insonlar hammasini bilib, zulmlari tomom bo`lishini va ular yaxshi narsalarga loyiq, bunday zo`ravonlikga emas ekanini yozib keyingi jumlalarda shunday deydi:

Xalkeki kambag`aldur go'yoki g`altak o`ldi, O`lganini ustiga ham bir yecha kaltak o`ldi, Bu voqea, Muqimiy, har yerda dastak o`ldi, Pul-labba, narx-qiymat ustiga po`stak o`ldi, Po`stak(beliga) bog'lab Zavqiy bayoni chiqdi.

Bu holatlarni kuzatgan xalq vakillari qah-qah kular va Muqimiy yozganidek "har yerda dastak o`ldi". Bu xalq mablag`lari yig'ilib, shu mahalliy amaldorlarga tutqazish noto'g`ri ekanini va keyin baribir xalq yomonga va amaldorlar yaxshiga chiqib qolaverishini. Shu qisqacha janr asosida Muqimiy o'sha davrda ijtimoiy-iqtisodiy holatni ko'rsatib bera oladi va Muqimiy tenglik bo`lishini xohlaydi.

Umuman olib qaraganda Muqimiy asarlarida o'zining iqtisodiy- ijtimoiy qarashlarini keltirib o'tadi. Bu bilan Muqimiyning nafaqat adabiyotda balki O'zbekiston iqtisodiyotning tarixiy shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo`lgan asarlar yoza olganini bildiradi (qo'rqmasdan). Ayniqsa uning hayot yo'lidan iqtisodchi va rahbar kadrlar o'rnak olsa bo`ladi va asarlari orqali esa juda ko`plab iqtisodiyot-ijtimoiy masalaga doir malumotlarni olish mumkin. Bu buyuk siymolardan bo`lgan shoir zamonida iqtisodiy-jtimoiy qarashlarini, o`qib o`rganib shunday xulosaga keldim va misralar ila bayon qilishni lozim topdim. Bu bir nechta misralar ko`p ma`lumot bera olmas, lekin o`qib o`rgangan tolibi-ilm sifatida firk bildirishi mumkin deb o'ylagan holda shunday so`zlar bittim:

Muqumiy or qilib mashhurlikdan, degan faqat haqiqat,
Inkor qilib nohaqlik, el uchun
O`sha qiyin damda, yashash qiyin bo`lgan unga,
O`zgartirib makonin, o`zga yerga el uchun

Men ham aytaman, bu shoir uchun haqiqat,
Garchi shoir bo`lmasam ham, el uchun
MASHHUR, Inson bo`lib bildim-ki,
Honlar hon emas, garchi haqiqat bo`lmasa, el uchun.

Foydalanilgan Adabiyot:

1. Satriddinovna, M. M. (2021). Peculiarities of Muqimi's Work and Its Significance. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(3), 75-77.
2. Satriddinovna, M. M. (2021). Kokand is Essential in Educational Literature The Place of His Works. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(4), 38-44.
3. Арипжанова, Л.Х., & Мухитдинова,М.С. (2019). Образовательные возможности новых информационных технологий в обучении иностранным языкам в вузе. Бюллетень науки и практики, 5(4).
4. M.M.Satriddinovna, A.K.Komiljon O`g`li, THE ROLE OF WRITERS AND POETS IN THE STUDY OF MUQIMI'S WORK AND THEIR VIEWS ON MUQIMI`s Article.